

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019 yil yanvar-fevral oylariga)

2019 yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 969 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 342 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2114 ta (14,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16408 tani tashkil etgan.

**Ro'yxatdan o'tganlar  
16858 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotganlar  
16408 ta**

**Yangi tashkil etilganlar  
969 ta**

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes  
sub'ektlari soni 12786 ta bo'lib,  
yil davomida 933 ta yangi tashkil  
etildi.**

**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi  
127 ta korxonalar faoliyat  
ko'rsatmoqda.**



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(*fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari*)



Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2035	1948	74
Sanoat	2007	1957	178
Qurilish	1894	1862	169
Savdo	3644	3541	394
Tashish va saqlash	780	756	13
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	969	941	48
Axborot va aloqa	319	301	11
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	305	300	9
Boshqa turlari	4905	4802	73




### Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

(*fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari*)


2019 yilning 1 mart holatiga 16858 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,6 % savdo, 11,9 % sanoat, 11,2 % qurilish, 12,1 % qishloq va o'rmon xo'jaligi, 5,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,9 % axborot va aloqa, 1,8 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda va 29,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5339 ta), To'rtko'l (1718 ta), Beruniy (1370 ta), Amudaryo (1250 ta) va Ellikqala (1047 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Mo'ynoq (320 ta) va Taxtako'pir (316 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda.**






## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 16408 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2114 ta (14,8 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 21,6 % savdo, 11,9 % sanoat, 11,3 % qurilish, 11,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,8 % dan va 29,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarsoni eng ko'pi Nukus shahri (5224 ta), To'rtko'l (1608 ta), Beruniy (1336 ta), Amudaryo (1216 ta) va Ellikkala (1041 ta) tunanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Mo'ynoq (314 ta) va Taxtako'pir (308 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar  
kesimida soni, birlikda**

01.03.2017 y.

• 13148

01.03.2018 y.

• 14294

01.03.2019 y.

• 16408




## Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yil yanvar-fevral oylarida 969 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,3 baravarga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Nukus shahri (299 ta), Turtko'l (105 ta), Amudaryo (72 ta) va Ko'ng'rot (67 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qorao'zak (27 ta), Qanliko'l va Nukus tumanlarida (26 tadan) hamda Taxtako'pir tumanida (15 ta) korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (394 ta), sanoat (178 ta), qurilish (169 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (74 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa tashish va saqlash (13 ta) axborot va aloqa (11 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (9 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.03.2017 y.	01.03.2018 y.		01.03.2019 y.		
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Respublika bo'yicha jami</b>	<b>420</b>	<b>100,0</b>	<b>627</b>	<b>100,0</b>	<b>969</b>	<b>100,0</b>
Sanoat	120	28,6	77	12,3	178	18,4
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	98	23,3	92	14,7	74	7,6
Savdo	73	17,4	75	12,0	394	40,7
Qurilish	46	11,0	73	11,6	169	17,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	32	7,6	26	4,1	48	5,0
Tashish va saqlash	15	3,6	14	2,2	13	1,3
Axborot va aloqa	10	2,4	4	0,6	11	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1,0	14	2,2	9	0,9
Boshqa turlari	22	5,2	252	40,2	73	7,5

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning  
yillar kesimida soni, birlikda**






## ⊕ TIJORAT KORXONALARI.

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019 yil 1 mart holatiga 12861 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar - 2994 ta, oilaviy korxonalar - 729 ta, ma`suliyati cheklangan jamiyatlar – 8828 ta va boshqalar 310 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiyligi soni, birlikda**

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



## ⊕ Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 mart holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 127 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga yoki 56,8 % ga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Janubiy Koreya Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 78 tasi qo'shma korxonalar, 49 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida  
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.**




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Nukus shahar (22 ta yoki jamidagi ulushi 17,3 % ), Mo'ynoq tumani (18 ta yoki 14,2 % ) va Taxiatsosh tumani (11 ta yoki 8,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Ellikqala tumani (4 ta yoki 3,1 %) hamda To'rko'l, Xo'jaili va Shumanay tumanlarida (3 tadan yoki 2,4 % dan) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 59 ta (46,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 34 ta (26,8%) hamda savdoda 21 ta (16,5 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa qurilishda hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 tadan (2,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,6 %), tashish va saqlashda 1 tani (0,8 %) hamda boshqa hizmat turlarida 4 ta (3,2%) tashkil qilgan.

Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'gri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'gri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 8 tani tashkil qilgan.

Bunda, Qozog`iston Respublikasi - 2 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 2 ta va Turkmaniston Respublikasi - 2 ta Rossiya Federatsiyasi hamda Afg`oniston Respublikasi - 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi ro`yxatdan o'tgan.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1 ta), savdo bo'yicha xizmatlarda (5 ta) hamda sanoatta (2 ta) hissasiga to'gri keladi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi


	2018 yil yanvar-fevral oyida		2019 yil yanvar-fevral oyida	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3	100,0	1	12,5
Sanoat			2	25,0
Savdo			5	62,5



### ■ Kichik korxona va mikrofirmalar soni.

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

2019 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 12786 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 mart holatiga qaraganda 16,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 4364 tasi (34,2 %) Nukus shahri, 1357 tasi (10,6 %) To'rtko'l, 1057 tasi (8,3 %) Beruniy hamda 915 tasi (7,2 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 12786 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3523 tasi (27,6 %) - savdo, 1896 tasi (14,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1928 tasi (15,1 %) - sanoat, 1853 tasi (14,5 %) - qurilish, 937 tasi (7,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 751 tasi (5,9 %) - tashish va saqlash, 263 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasi, 220 tasi (1,7 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1415 tasi (11,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash hamda axborot va aloqa sohasi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



2019 yil yanvar-fevral oylarida 933 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,3 baravarga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Nukus shahri (287 ta), To'rtko'l (99 ta), Amudaryo (72 ta), Xo'jayli (66 ta), Qo'ng'irot (65 ta) va Beruniy tumanida (42 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Nukus tumani (25 ta) hamda Taxtako'pir (15 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (393 ta), sanoatda (178 ta), qurilishda (168 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (73 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (13 ta), axborot va aloqada (11 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) tashkil etilgan.

### Oilaviy korxonalar soni

 Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 mart holatiga 742 tani tashkil etib, ulardan 729 tasi yoki 98,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan


olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 37,7 %.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,4 % yoki 200 tasi sanoat va yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,1 % yoki 176 tasi savdo, 7,7 % yoki 56 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,1 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % yoki 12 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 6 tasi qurilish, 0,4 % yoki 3 tasi tashish va saqlash hamda 8,5 % yoki 61 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish hamda sanoatta, eng kami esa qurilish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Statistika boshqarmasi  
statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:71-230-82-23 (24)**